

3/2024,  
may-  
iyun  
(№ 00071)



## TALABA YOSHLARNING G'YOYALARINI TIJORATLASHTIRISHDA BIZNES INKUBATOR FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Biznes boshqaruvi» kafedrasи assistenti.*

**E-mail:** [shodiyor.narzullayev74@mail.com](mailto:shodiyor.narzullayev74@mail.com)

**ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-5758-5787>

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss3/i12](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i12)

### Annotation

Ushbu maqolada, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishning afzalliklari, shu jumladan talaba yoshlarning innovatsion biznes g'oyalarini tijoratlashtirish yo'llari, ilmiy-tehnologik ishlanma loyihalari, dasturlarini moliyaviy qullab-quvatlash modellari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan biznes-inkubator tizimini moliyalashtirishga oid fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** modellashtirish, kichik biznes, startap, innovatsiya, g'oya, rivojlanish, tadbirkorlik, ofis ishi, axborot, o'qitish, konsalting, yuridik, xizmat ko'rsatish, inkubatsiya, moliyalastirish.

### ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БИЗНЕС-ИНКУБАТОРА ПО КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ СТУДЕНЧЕСКИХ ИДЕЙ

**Нарзуллаев Шодиёр Эшпулатович**

*Ассистент кафедры «Управления бизнеса» Ташкентский государственный экономический университет*

### Аннотация

В данной статье представлена информация о преимуществах обеспечения финансовой независимости образовательных учреждений Республики Узбекистан, в том числе о способах коммерциализации инновационных бизнес-идей студентов, моделях финансовой поддержки проектов и программ научно-технического развития. Также представлены мнения зарубежных и отечественных ученых относительно финансирования системы бизнес-инкубаторов.

**Ключевые слова:** моделирование, малый бизнес, стартап, инновации, идея, развитие, предпринимательство, работа в офисе, информация, обучение, консалтинг, юриспруденция, сервис, инкубация, финансирование.

### WAYS TO INCREASE BUSINESS INCUBATOR ACTIVITY IN COMMERCIALIZATION OF STUDENT IDEAS

**Narzullaev Shodiyor**

*Assistant of the Department of “Business administration” Tashkent State University of Economics*

## **Abstract**

This article provides information on the advantages of providing financial independence to educational institutions of the Republic of Uzbekistan, including ways to commercialize innovative business ideas of students, models of financial support for scientific and technological development projects and programs. Also, the opinions of foreign and local scientists regarding the financing of the business incubator system are presented.

**Keywords:** modeling, small business, startup, innovation, idea, development, entrepreneurship, office work, information, training, consulting, legal, service, incubation, financing.

### **Kirish**

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirish boshlandi. Bizga amaliy tajribalardan ma'lumki, ta'lifni rivojlantirishda uni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, y'ani moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda ta'lif muassasalarida biznesni rivojlantirish va o'z-o'zini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash barchamiz uchun maqsadli iqtisodiy harakat hisoblanadi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli «Davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorni imzoladi. Qarorga ko'ra, 2022-yil 1-yanvardan 35 ta yetakchi davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik va qo'shimcha amalga oshirishi kerak bo'lgan vakolatlar berildi.

Mazkur qaror asosan o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lif muassasalariga berilgan imtiyoz va huquqlardan samarali foydalanish, tashkil etish chora-tadbirlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi

Moliyaviy mustaqillikka erishgan davlat OTMlari 2022-yil 1-yanvardan quyidagilar bo'yicha qarorni amalga oshirish nazarda tutilgan: Qarorga ko'ra:

- kontrakt qiymatini, to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;
- mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnomaga asosida jalb qilish;
- o'z hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish;
- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;
- avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash.

Shuningdek qarorga ko'ra, ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari uchun davlat OTM xarajatlarini onlayn monitoring qilib kelmoqda [1].

Ko'pincha, yosh tadbirkorlarda, moddiy, moliyaviy resurslar va boshqa g'oyaviy yangiliklar haqida yetarlicha nazariy bilim va tajribalarga ega emas. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki yosh avlodning g'oya va loyihalari har tomonlama bir necha yuzlab foyda keltiradi. Buning uchun talaba yoshlarning zamonaviy biznesga asoslangan intellekt salohiyatini moliyalashtirish yo'llarini ishlab chiqish borasida sarmoyalar ajratishni talab qiladi. Albatta buning uchun izlanishlar olib borish zarur [2].

Buning uchun ta'lif muassasasi subyektlari intellektidan samarali foydalanishhni yo'lga quyish zarur. Ushbu intellekt bozorbob, arzon, raqobatbardosh mahsulot bo'lishi va uni realizasiyasi uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish maqsadlidir [3]

Bunday tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning eng samarali vositalaridan biri biznes-inkubatorlar, ya'ni ta'lif muassasalarida «Biznesni rivojlantirish markaz»larining faoliyatini yo'lga qo'yish dolzARB masala husoblanadi.

Manbalardan ma'lumki, “Biznes-inkubator bu kichik va o'rta biznes (xususiy tadbirkorlar, firmalar) ning boshlang'ich rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadigan tashkilot” hisoblanadi[4].

Shu bilan birga, korxona tashkil etishda yo'l qo'yilayotgan ba'zi xatolar uning rivojlanishiga ko'p yillar davomida to'sqinlik qilishi yoki umuman barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Biznes inkubatorlar nomidan ko'rinib turibdiki, ular kichik kompaniyalarning mavjud bo'lishini ta'minlaydi va birinchi bosqichidayoq saqlab qolish hamda rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga kumaklashadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Biznes inkubatorlar hayotimizga zamonaviy tushuncha sifatida kirib kelgan bo'lsada, u kichik va o'rta biznesni tashkil etish malakalari va uning madaniyatini yuksaltirish, tarbiyalash bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan tashkilotlarni iqtisodchi olimlar, mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida fikr va mulohazalarini keltirib o'tishgan. Jumladan, ta'lif tizimini moliyalashtirish mexanizmi va uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borgan xorijiy olimlardan biri iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori G.S.Bekker o'z nazariyasida intellektual kapitalga ham davlat, ham xususiy sarmoyalarni amalga oshirish iqtisodiy zarurat ekanligini asoslab bergen. Uning fikricha, ta'limga, tibbiyotga va kadrlar salohiyatiga yunaltirilgan ijtimoiy dasturga sarmoyalar kiritish – bu yangi texnologiyalarni yaratishga sarmoya kiritish bo'lib, faqat kelajakda katta foyda keltirishi mumkin [5] Bundan tashqari, xorijiy olimlardan Sherman va Chappelning so'zlariga ko'ra, biznes inkubator «birinchi navbatda jamiyatda yangi korxonalar yaratish va yangi korxonalarni yaratishga yordam beradigan iqtisodiy rivojlanish vositasi» deb ta'kidlaydi.

R. Lalkakaning ta'kidlashicha. Biznes inkubatorlar, asosan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga dastlabki faoliyatida bozor iqtisodiyoti bo'yicha zarur bilimlarni o'rgatish, biznes reja tuzish, mablag'lar topish, halqaro grantlar olishda ko'maklashish, tadbirkorlik g'oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish va joriy etish ishlarini amalga oshirib borishi hamda tizimli ravishda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashi borasida, o'z tushunchalarini berib o'tgan [6].

T.A. Tarmesheva tomonidan, “Biznes inkubatorning maqsadi - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshlang'ich va yosh innovation korxonalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ularni mustahkamlash, raqobatbardoshligini oshirish va tashqi iqtisodiy muhit sharoitlariga moslashish uchun qo'lay shart-sharoitlarni yaratishdir” [7] deya o'z fikrlarini bildirgan.

G.V. Shukinning fikriga ko'ra, Biznes-inkubator faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, u ko'p funksiyali murakkab kompleks bo'lib, keng ko'lamli raqamli innnovation xizmatlar ko'rsatadi[8]

L.D. Xaskevich, D. M. Jukov, G. V. Shukinlar esa, Biznes-inkubatorlar rezidentlar uchun imtiyozli tartibda ishlab chiqarish maydonlari va ofislarini ijara beruvchi, ofis texnikasi va kommunikasiya bo'yumlari bilan ta'minlovchi, autsorsing va buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlardir[9] deya fikrlarini ilgari surishgan.

Yillar davomida mutaxassislar biznes inkubatsiyani o'ziga xos tarzda aniqladilar. Ammo asosiy tushuncha avvalgidek qoladi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A. O'Imasov

hamda A. Vahabovlar moliyalashtirish iqtisodiyot sub`ekti faoliyatining pul bilan ta`minlanishi bo`lib, ular bir nechta usullar orqali amalga oshirilishini, jumladan, o`zini-o`zi moliyalashtirish, byudjetdan moliyalashtirish va xomiylar tomonidan moliyalashtirishni e`tirof etgan[10].

Mazkur biznes inkubatorlarga ta`rif berib o`tgan xorijiy va mahalliy olimlarning nazariyalari tadbirkorlik malakalarini rivojlantirishga, mahalliy ishbilarmonlarni, shu jumladan yoshlari, ayollar va aholining boshqa guruhlarini xalq xo`jaligiga jalb etishni kuchaytirish muammolarini yechishga xizmat ko`rsatadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Bugungi kunda biznes inkubatorlarning bir nechta turlaridan foydalanish va tartibga solish bo`yicha mavjud bo`lgan ilmiy tadqiqotlarni o`rganish, inkubasiyaning shakllanishini qiyosiy solishtirish, iqtisodiy ma`lumotlarni o`rganish, taqqoslash hamda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, guruxlash, inuksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Bugungi kunda tadbirkorlik bilan shug`ullanish uchun etarli resurs, iqtisodiy sharoit va ular uchun xavfsiz muhit ta`minlanmoqda. Mamlakatimiz misolida oladigan bo`lsak, so`nggi yillarda tadbirkorlarga iqtisodiy erkinliklar berilishi, bozorning ochiqligi, ya`ni tovarlar, sarmoyalar, ma`lumotlar, ishchi kuchi, xomashyo harakati uchun sun`iy to`sionalar yo`qligi, bozor infratuzilmasi mavjudligi, tadbirkorni himoyalovchi mustahkam qonunchilik va huquqiy kafolatlar ta`minlanganligi hamda davlat tomonidan ularga imtiyozlar beriliishi ijobjiy muhitga misol bo`la oladi. Ta`lim muassasasi yosh tadbirkorlari (bitiruvchilari) bundan o`rnida samarali foydalanishlari zarur.

Shuningdek, biznes-inkubator, binolar yoki alohida jihozlar taqdim etadigan abituriyentlarni tanlash, bo`lajak tadbirkor sifatida talabalarning biznes takliflarini o`rganish, tahlil qilish, xulosalash va tekshirish natijalariga ko`ra tanlov asosida qarorlar qabul qilishni amalga oshirish kerak. Agar ekspertlar kengashi biznesni istiqbolli taklif sifatida baholasa, talabalar yakka yoki kichik biznes tartibidagi huquqiy tadbirkor sifatida, jamoa tuzish orqali ro`yxatdan qanday o`tishlari mumkin hamda biznes g`oyani qanday qilib istiqbolli mahsulotga aylantirish va qanday qilib biznes inkubatorda ishtirot etib, ishlashni boshlash mumkinligi haqida faoliyatini amalga oshirishi lozim bo`ladi.

Biznes-inkubatorning o`ziga xos xususiyatlaridan yana biri, yangi boshlayotgan yosh tadbirkorlarga binolarni ijara olishda imtiyozli shartlardan foydalanishni amalga oshiradi va boshqa shartlarda xizmat ko`rsatadi. Talabalar universitetda o`z do`konini ochishni rejalashtirsa va u erda tadbirkor sifatida o`zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarni (g`oyalarini, san`atini, xizmatlarni) namoyish etishsa, ularning yangi mahsulotlarini, mijozlarning so`rovlari va istaklari orqali kuzatib borishlari kerak bo`ladi [11].

Yosh tadbirkor talabalarning loyihalarini amalga oshirishning taklif qilingan modeli amalda qo`llaniladigan bo`lsa, universitet, kasb-hunar ta`limi muassasalari ham iqtisodiyotning real sektori sub`ektlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, sohalarni rivojlanishini belgilaydi. Bunda o`z biznesini ochadigan talabalar soni, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish hajmi va shunga mos ravishda ular oladigan foya miqdori bilan iqtisodiy samaradorlikni ko`rsatish mumkin hamda mustaqil moliyaviy ko`rsatkichiga ega bo`lishi aniq .

Bundan tashqari, ta`lim muassasasini moliyalashtirishda xizmat ko`rsatishi mumkin bo`lgan quyidagi xizmat turlari taklifini o`z ichiga olishi kerak:

- tanlov komissiyasi tomonidan tanlangan nomzodlar bilan tadbirkorlik faoliyati asoslari bo'yicha o'quv tadbirlarini o'tkazish;
- tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish;
- marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- hududdagi turli ta'lim muassasalari, hokimiyatlar va nazorat tashkilotlari vakillari bilan tadbirkorlar uchrashuvlarini tashkil etish;
- ta'lim muassasasi mahsulotlarini realizatsiya qilish, biznes sheriklarini topish;
- dolzarb masalalar bo'yicha kelishuvni amalga oshirish, shartnomalar tuzish, axborot almashish, ma'lumotlar sotib olish va taqdim etish (ixtisoslashtirilgan g'oyaviy mahsulotlar sotish);
- yarmarkalar va ko'rgazmalarda birgalikda ishtirok etishni tashkil etish;
- biznes-rejalar va ishlab chiqarish strategiyalarini qo'llab-quvvatlash tarkibi [12].

Shuningdek, ular tomonidan mahalliy, respublika byudjetlariga o'tkaziladigan rasmiy soliqlarning miqdori va boshqa resurslarning o'zlashtirilishi sezilarli darajada o'sishi ta'minlanadi.

Ular o'z faoliyati bilan alohida ajralib turadi. 1985-yilga kelib jahonda 70 ga yaqin biznes inkubatorlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1992-yilda ularning soni 472 taga, 1995-yillarda 1100 taga yetdi. Hozir esa dunyo bo'yicha 2000 dan ortiq yirik biznes inkubatorlar, ular innovatsion markazlar, texnopollar, texno-parklar, ilmiy parklar, ilmiy laboratoriya majmualari, o'quv ishlab chiqarish markazlari va hk ko'rinishida faoliyat yuritadi. Ularning asosiy maqsadi iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish, ish o'rinalarini yaratish, iqtisodiy faoliyat sohalarini kengaytirishdan iboratdir.

Umuman olganda, dunyoda 2000 dan ortiq mustaqil biznes-inkubator faoliyati bilan shug'llanadigan ishbilarmonlar mavjud. Eng qiziqarli tomoni shundaki MDH mamlakatlarda G'arb va Amerika tajribasini hisobga olgan holda u davlatlarning inkubasiya dasturi va mexanizmlaridan foydalanish hamda to'plangan tajribalar asosida tadbirkorlikni rivojlantirib borish davr talabidir.

Hozirgi vaqtida Rossiyada 70 dan ortiq biznes-inkubator ishbilarmonlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shu jumladan MDHning boshqa mamlakatlarda, xususan Azarbayjon, Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston va Turkmanistonda ham bunday innovatsion qo'llab-quvvatlashlar tizimi ham rivojlnana boshladi.

Biznes-inkubatorlar yangi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning shu qadar muvaffaqiyatli shakli bo'lib chiqdiki, ularning soni nafaqat AQShda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarda ham tez o'sishda davom etmoqda. Biznesni inkubatsiya qilish kontseptsiyasi AQSh, Kanada va G'arbiy Evropada kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan ixtisoslashgan tuzilmalar sifatida allaqachon keng tarqalgan.

Bunday holda, kelajakda samara beradigan mutaxassisliklarning iqtisodiy tayyorgarligini muntazzam oshirib borish, nafaqat iqtisodiyot balki, biznes bo'yicha nazariy bilimlar, biznesni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish, hisobini yuritish va nazorat qilish tamoyillari usullarini ham o'rganishni talab qiladi. Shu asosida yosh tadbirkor talabalar o'zining moliyaviy mustaqilligiga ega bo'ladi.


Tadbirkorlik bilan shugu'llanish istagi bo'lgan talabalarda tijorat faoliyati sohasida boshlang'ich kapital va maxsus iqtisodiy-huquqiy bilimlarning etishmasligi bois kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini o'rganish zarur. O'rganish natijalariga ko'ra O'zbekistonda o'rtacha yosh 23-25 yoshni tashkil etishi va kelasi yillarda u 26 yoshdan

yuqoriroq bo'lishi to'g'risida taxminlar bor. Demak bu ko'rsatgich talabaning ta'lif muassasini bitiruv yoshiga to'g'ri kelyapti.

Bir tomonidan, O'zbekiston, Markaziy Osiyoda o'zining eng katta demografik dividend to'lqiniga ega bo'lib bormoqda, ikkinchi tomonidan, Agar biz vaqtdan unumli foydalanib, yoshlarga tadbirkorlikdan to'g'ri ta'lif va kasbiy ko'nikmalar berish orqali ushbu demografik dividenddan foydalana olmasak, bu eng yomon demografik falokatga olib kelishi mumkin, chunki tegishli tadbirkorlik ta'lifiga ega bo'lmagan yoshlar katta davlat mas'uliyatiga ya`ni zimmasidagi yukka aylanadi. Bu mamlakatni ish bilan ta'minlanganlik inqirozining demografik falokatidan qutqarish uchun bizning ta'lifimiz barcha sohadagi yunalishlarini tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Bizga ish izlovchilarining ehtiyojlarini qondira oladigan, ish beruvchilar ko'proq kerak. Har yili bizning ta'lif muassasalarida bitirgan yoshlarni qayirga ishga joylashganligi to'g'risida hisobotlar talab qilinadi va shu asosda ishga joylashganligi monitoring qilinadi. Aksincha biz bitiruvchi yoshlarni qanchasi o'z biznesiga ega bo'lishiga ko'maklashishimiz kerak.

Bizning ta'lif tizimimiz, bir tomondan, ish izlovchilarni tayyorlashga moslashtirilgan bo'lsada, ikkinchi tomondan esa, xuddi shu tizimda tug'ma tadbirkorlik g'ayrati bilan to'g'ilganlarning kommunikativ qobiliyatlarini tarbiyalash uchun deyarli barcha shart—sharoitlarni ta'minlashimizga bog'liq. O'shanda o'rtaga tashlangan muammolarga echim topilishda sohaga qadam qo'yayotgan ta'lif muassasini bitiruvchi yoshlarning o'z biznesini yaratishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Talabalar biznes inkubatorini tashkil etish va qullab-quvatlash modeli.

O'rganilgan nazariy-amaliy izlanishlar natijasida talabalar uchun biznes inkubatorini tashkil etish va qullab-quvatlash modeli ishlab chiqildi, unga ko'ra;

Talabalar biznes inkubatorini tashkil etish va qullab-quvatlash (homiylid qiladigan va jamoat asosida tashkil etish) modeli quyidagi 1- rasmda aks ettirilgan.

1-rasmdan ko'rinish turibdiki, yosh tadbirkorlar nafaqat tegishli ishlab chiqarish maydonlarini va qiziqarli infratuzilmani, balki boshqa bir qator zarur xizmatlarni ham topishlari mumkin.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida biznes inkubatorlar sonining jadal rivojlanishi va jadal o'sishi ushbu modeldan bir qator muammolarni hal qilishda foydalanish samaradorligini isbotlaydi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

- ta'lim muassasalarining iqtisodiy-moliyaviy faolligini yaxshilash, ichki imkoniyat bozorlarini rivojlantirish, diversifikatsiya qilish;

- ta'lim muassasasida kichik korxonalar mikro, kichik va o'rta biznes tashkil etish, sonini ko'paytirish, ularning hayotiyligini oshirish, shuningdek davlatimizning soliq bazasini kengaytirish;

- kapital, mehnat, ishlab chiqarish, texnologik, tabiiy va boshqalarni o'z ichiga olgan hududiy mintaqasi resurslaridan to'liq foydalanish; ;

- umuman ta'lim muassasi sub`ektlari biznesining innovatsion g'oya, startap loyihibar faolligini oshirish hamda "nou-xau" texnologiyalarini joriy etish;

- ta'lim muassasalarining iqtisodiy tizimlarini mustahkamlashga hissa qo'shadigan mintaqalararo aloqalarni yo'lga quyish va mustahkamlash;

- aholining turmush darajasi bandligini o'shirish[14]

Shuningdek, biznes-inkubatorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'plamiga, qoida tariqasida, quyidagilarni kiritish mumkin:

a) imtiyozli shartlarda tegishli aloqa vositalari bilan jihozlangan (ofis uskunalar, texnika-texnologiya va jihozlar) ofis, bino-inshoat va agar kerak bo'lsa, ishlab chiqarish binolarini ijara olishga ko'maklashish;

b) turli xil ofis ishi, axborot, o'qitish, konsalting, yuridik va boshqa xizmatlarni taqdim etish.

Bu muvaffaqiyatga erishishimiz uchun ta'lim muassasalarida tadbirkorlik borasida, talaba yoshlar o'rtasida samarali ochiq muloqot o'tkazishni yo'lga quyish zarur.

Yuqorida tanlangan xizmatlar majmuasining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularni taqdim etish uchun kompyuter xonasi yoki xizmat ko'rsatish markazi, ya'ni o'quv kursi tashkil etishga zarur bo'lgan binolarni ijara olishni rejalashtirishda hisobga olinadi.


Bundan tashqari ekspertlar kengashidan o'tgan bitiruvchi talabalarning biznes g'oya va takliflarini qo'llab-quvvatlash uchun ularga maxsus ustaxonalar (maxsus joylar) ajratish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish uchun podvallarni, bush xonalarni ijara berish, mahsulotlarni saqlash va do'kon ochish uchun qo'shimcha xonalar ajratish, laboratoriya uskunalarini va ofis jihozlarini ijara olish, xom ashyo va boshqa materiallarni sotib olishlari uchun boshlang'ich mablag'lar (yoki bepul) bilan ta'minlash hamda ijara chilarga o'z kutubxonasi va telekommunikatsiya resurslari imkoniyatidan foydalanish muhim bo'ladi.

Tashabbusli g'oyaviy mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy etish ularoq, yosh tadbirkorlar ilgari surayotgan tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqli: So'nggi paytlarda universitetlar, texnikumlar, kollejlar, kasb-hunar maktablari va monomarkazlar asosida ishlaydigan jamoat hamda xususiy inkubatorlar bilan ko'p o'xshashliklarga ega bo'lgan akademik markazlar (inkubatorlar) faoliyati keng tarqalmoqda.

Hukumat va jamoat tashkilotlari tomonidan homiylik qilinadigan notijorat jamoat yoki xususiy kompaniyalar (masalan, Shimoliy Amerikada juda keng tarqalgan) turlari mavjud.

Buning uchun biznes inkubatorning moliyashtirish modelini ishlab chiqishimiz va bundan talabalar biznes inkubator xizmatlarining barcha turlaridan foydalanishlari mumkin (2-rasm), muallif (Sh.E.Narzullayev) ning fikriga ko'ra, biznes-inkubatorning moliyalashtirish modeli bu, "talabaning tashabbusli g'oyalari"ni "ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)"ga joriy etish bo'yicha muayyan biznes jarayonini tashkil etishga "moliyashtirish" modeli ko'maklashadi hamda investitsion maqsadlarda foydalanishni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Tadbirkor talabalarning biznes inkubatorini moliyalashtirish uchun 2-rasmda keltirilgan manbaalar asosida qullab-quvatlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishni taqqozo etadi. Ushbu model biznes olamiga endi kirib kelayotgan yosh tadbirkorlarga moliyaviy muloqot qilishni o'rgatadi. Moliyaviy muloqot mahalliy va xorijiy investisiyalar asosida tadbirkorligini amalga oshirishda tashabbusli innovatsion ishlalmalarini kichik biznes sifatida birlashtiradi, ya'ni, oilaviy korxona, xususiy korxona, kompaniya, korporatsiya, yoki iqtisodiyotning boshqa faoliyati o'rtasidagi munosabatlariga qiziqqan har bir ta'lif bitiruvchisi uchun ideal hisoblanadi.



**2-rasm. Biznes inkubatorni moliyalashtirish modeli**

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun biznes inkubatorlar, ta'sischilar, homiylarning moddiy resurslari va tashkiliy yordamidan foydalanadilar, shu bilan birga u faoliyat ko'rsatadigan tashqi muhitga ijobji ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatadilar. Shu jumladan, biznes-inkubatorlar mijozlarga zarur bo'lgan barcha xizmatlarni taqdim etadi: Masalan, binolar, ofis jihozlari, buxgalterlar, maslahatchilar, advokatlar, auditorlar, sotuv xizmatlari, shuningdek, xavfsiz jihozlangan maydonlar, barqaror ijara shartlari, biznesga kirish, kredit, o'qitish, maslahat berish, biznes yuritish, litsenziyalash, sug'urta, ro'yxatdan o'tish, patent olish va professional xizmatlar (yuridik, buxgalteriya, marketing, reklama, dizayin va boshqalar) kabi ishlar shular jumlasidandir.

### **Xulosa va takliflar**

Hozirgi vaqtida ta’lim muassasalarida biznes-inkubatorlarni tashkil etish (qayta ochish) va ushbu subyektlarining erkin faoliyat yuritishi uchun qator muammolar mavjud. Bunda asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirib o’tishimiz mumkin. Xususan:

1. Bo’sh xonalar (o’quv laboratoriylar, maxsus sinf xonalar, podvallar, ustaxonalar, garaj, laboratoriya va boshqalar)ni talabalarga tadbirkorlik sub’ekti sifatida foydalanishga berish.

2. Zamonaviy uskunalar bilan jihozlash. Buning uchun endi tadbirkorlik bilan shug’ullanishni boshlagan yosh tadbirkor talabalarga maxsus bush xonalarni, joylar va ish qurollari, stoll, stullar, loyihami amalga oshirish uchun zarur bo’lgan vositalar, asbob-uskunalar bilan ta`minlashga ko’maklshish.

3. Tadbirkorlik faoliyatini yo’lga quygan va unga a’zo bo’lganlar uchun biznes – inkubator modeli “Platforma”sini taklif etish.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilar ekan, ayni vaqtida, yosh tadbirkor talabalarning loyihamalarini amalga oshirishning taklif qilingan modeli amaliyotda qo’llaniladigan bo’lsa, qushimcha qiymat yarata oladigan kichik va o’rta biznesning real sektori sub’ektlari o’rtasida yangi soliq tulovchilar vujudga keladi hamda aholi bandlik muammosini hal qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga jamiyat barchaga qobiliyatlarni ro’yobga chiqarish uchun teng huquqiy shart-sharoitlar yaratib berishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, yosh tadbirkor talabalarning g’oyalari, loyihalari ishlab chiqarishga keng joriy etilsa va qullab-quvatlansagina, biznes inkubatorga qiziquvchi tadbirkor talabalarning soni oshadi. Ularning ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvini hisobga olgan holda, bozorga erkin moslashadigan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish istagi bo’lgan yoshlarini qo’llab-quvvatlash, ayniqsa ular tomonidan yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoki o’z do’konida turli yarmarkalarda sotuvga qo’yilishi ta`minlansa muallif egalari yanada yangi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ko’proq rag’bat va motivatsiyaga ega bo’ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-61-sonli qarori.<https://lex.uz>

2. «Innovatsion infratuzilmani (texnologiya parklari, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, vechur jamg’armalari, biznes-inkubatorlar va boshqalarni) rivojlantirish” O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida”gi O’RQ-576-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs>

3. Kudabayeva G.Z., Bokebayeva A.E., Казахского государственного женского педагогического университета УДК:338.242 (575.2) (04)

4. Batova.B.Z. Проблемы финансирования образования в России // Фундаментальные исследования. 2016.-№5-3.-С.546-550

5. R. Lalkaka Lalkaka, R. (1997) Convergence of Enterprise Support Systems: Emerging Approaches at Asia’s Technology Parks and Incubators, AUERP 12th International Conference, Monterey, California

6. Тормышева, Т.А. Пути активизации инновационной деятельности на базе бизнес-инкубаторов и технопарков /Т.А. Тормышева //Инновации и инвестиции. - 2018. -№2 - 99-103 с.
7. Щукин Г.В. Система экономического и финансового управления бизнес-инкубатором. /Издательство «Истоки», Воронеж, 2018. - 63 с.
8. Хацкевич Л.Д., Жуков Д.М., Щукин Г.В. Опыт создания бизнес-инкубаторов и перспективы их развития /Журнал «Организатор производства» JYS 1. Издательство ФНПЦ-ЗАО НПК(о) «Энергия». -Воронеж, 2019.-С.55-57.
9. O'Imasov A. Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik-T: TDIU. 2014.
10. Синицкий Д.А. Бизнес-инкубирование: приоритеты развития // Бизнес-инкубирование и муниципальная политика. Бюллетень. М.: 2003.
11. Сошникова Е.А. Бизнес-инкубирование в промышленной сфере (бизнес – инкубаторы и крупные промышленные предприятия) // Бизнес-предложения. 2003. № 2.
12. Kudabayeva G.Z., Bokebayeva A.E., Казахского государственного женского педагогического университета УДК:338.242 (575.2) (04)
13. Narzullayev Sh. E. Iqtisodiyotni modernizasiyalashtirish sharoitida biznes inkubatorlarning innovatsion salohiyatini boshqarish // Maqola. –OAK Jurnal: “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnalı. № 5 son, 2021 yil.